

MAHALLA INSTITUTINING JAMIYATDAGI ROLINI OSHIRILISHI

Z.M.Toshtemirova¹

1. University of Economics and Pedagogy, Andijon, O'zbekiston.

Correspondence: Toshtemirova Zilola Madaminjonovna, University of Economics and Pedagogy, Andijan, Uzbekistan.
e-mail: toshtemirova zilolaxon@gmail.com

Received: 10 October 2024; **Accepted:** 17 November 2024; **Published:** 09 December 2024.

Abstract. Mahalla o'zbek xalqi hayotida, kundalik turmushida alohida o'ringa ega bo'lgan tuzilma hisoblanib, mustaqillik yillarida mahallalar jamiyatning moddiy-ma'naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarni hal etib, fuqarolar yig'inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida tiklanmoqda. Ushbu maqola orqali mahallaning o'rni jamiyatining shakllanish jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Keywords. mahalla tuzilmasi, moddiy-ma'naviy asos, munitsipal tuzilma, hududiy ommaviy jamoa, mahallalari uyushmasi, taraqqiyot strategiyasi, "mahalla budjeti" jamoatchilik nazorati, demokratiya tamoyillari, inson omili..

Mahalla o'zbek xalqi hayotida, kundalik turmushida alohida o'ringa ega bo'lgan tuzilma hisoblanadi. Mahalla tuzilmasi va funksiyasi vaziyatga qarab o'zgarib turgan, ammo u o'zini o'zi boshqarish tamoyilini saqlab qolgan, o'z hududida istiqomat qiluvchi kishilar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turgan. Mustaqillik yillarida mahallalar jamiyatning moddiy-ma'naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarni hal etib, fuqarolar yig'inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida tiklanmoqda.

Mahalla, umuman, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatidagi roli ularning muayyan hududdagi aholinini birlashtirishi, uni yagona jamoaga aylanishi va faoliyat ko'rsatishiga xizmat qilishidadir. Bugungi kundagi zamonaviy tadqiqotlarda munitsipal tuzilmaning aholisi – hududiy ommaviy jamoa, —hududiy jamoa, —mahalliy hamjamiyat tushunchalari bilan belgilanadi. V.YE. Chirkinning ta'rificha, hududiy ommaviy jamoa – aholini hududiy mansublik belgisi bo'yicha tashkil etishning maxsus shakli va odamlarning fuqaroligidan va yoshidan qat'iy nazar maxsus uyushmasidir. Hududiy ommaviy jamoa sifatida u davlatni tashkil etgan jamiyatlar, ularning ichida tuzilishi mumkin bo'lgan va tashkil etilayotgan boshqa hududiy ommaviy jamoalar: federatsiya subyektlari, siyosiy avtonomiyalar, munitsipal tuzilmalarning aholisi (xalqi)ni ajratadi[1].

So'nggi yillarda mahalla institutining jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, aholi farovonligini oshirishdagi ishtirokini kengaytirish borasida keng ko'lamli ishlar yurtimizda amalga oshirilmoqda.

2023- yil 21 dekabr kuni qabul qilingan "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni mahallaning jamiyatdagi o'rnini yanada oshirish, aholiga yaqin ko'makchi bo'lishida muhim ahamiyatga ega[3]. Prezident farmoniga ko'ra, mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamda uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi.

Mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlarining asosiy vazifasi hamda uyushmaning vazifalari belgilandi. Avvalo, yangilangan Konstitutsiyamizda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga alohida ta'rif berilganiga to'xtalib o'tsak. Avvalgi Konstitutsiyamizda bunday ta'riflar mavjud bo'lmagan. Yangi Konstitutsiyamizning XXI bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari, Fuqarolarning

o'zini o'zi boshqarish organlari" deb nomlanib, 127-moddada "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi, hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli", deb mustahkamlab qo'yildi[4]. Shuningdek, davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko'maklashishi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan 7- ta ustuvor yo'nalishning birinchi yo'nalishida mahalla instituti faoliyati samaradorligini oshirish va uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining muhim bo'g'iniga aylantirish maqsadi belgilangan va bir qator vazifalar o'z aksini topgan.

Endilikda Prezidentimizning mazkur farmon bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari institutsional jihatdan tubdan isloh etilyapti. Farmon bilan Respublika hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasi, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari tashkil etilmoqda. O'zbekiston mahallalari uyushmasining asosiy 9 ta vazifasi belgilandi. Uyushmaning asosiy vazifasi mahallani chinakamiga boshqaruvning birinchi bo'g'iniga aylantirish, mahallaning xalq bilan davlat o'rtasida «ko'pri» vazifasini bajarishiga sharoit yaratish, mahalladagi muammolarni hal etishda o'zining siyosatini yuritish, aholiga yordam berishdan iboratdir.

Mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari esa mahallani rivojlantirish yuzasidan asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi, daromadlar va xarajatlarga oid dasturlarni ko'rib chiqadi. Respublika mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi raisi Bosh vazir, viloyat va tuman, shahar kengashlarining raislari esa tegishincha viloyat va tuman, shahar hokimlari hisoblanadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida 5 ta shtat birligidan iborat. "Mahalla yettiligi" faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'limi joriy etilmoqda. "Mahalla yettiligi"ga mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori kiradi. Ular mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda asosiy javobgar hisoblanadi.

Tuman va shaharlarda "Mahalla budjeti" tizimi amaliyotga joriy etilmoqda. "Mahalla budjeti" shakllantiriladi, ushbu tizim mablag'larini sarflash vakolati mahallaga berilyapti, vazifalar yuklatilyapti. Ammo bu vazifalarni amalga oshirish uchun ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash kerak. YA'ni, mahalla davlatga qaram bo'lib, davlatdan pul so'rashi emas, balki mustaqilligini ta'minlashga intilishi kerak. Buning uchun ham davlat mahallaga ko'mak beryapti. Shuning uchun ham "Mahalla budjeti" tizimi joriy etilib, Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi ochildi. Ushbu jamg'armalarga jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig'idan undirilgan mablag'lardan tegishli qismi o'tkazilishi belgilangan.

Jamg'arma mablag'larini sarflash vakolati esa mahallaning o'ziga beriladi. Qayerda, qanday muammolar borligini ularning o'zi yaxshi biladi. Yettilik vakillari birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'rganib, shu asosda ish olib boradi.

Barcha fuqarolar yig'inlari tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni saqlash qoidalariga rioya etilishi, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Ushbu vakolatlari doirasida fuqarolar yig'inlari davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini yaxshilash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha takliflar beradilar, ya'ni mahalliy boshqaruvni amalga oshirishda ishtirok etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Chirkin V.YE. Publichnaya vlast. – M.: Yurist', 2005. S. 28.

- [2] 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
- [3] 2023- yil 21- dekabr kuni qabul qilingan "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni.
- [4] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil.